TURIZMNI O‘RTA ISTIQBOLDA SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING MUQOBIL STRATEGIYASI

Xalilov Sirojiddin Sherali o‘g‘li
Alfraganus universiteti professori, DSc
https://doi.org/10.5281/zenodo.17680612

Annotatsiya. *Ushbu maqola turizmni o‘rta istiqbolda samarali rivojlantirishning muqobil strategiyasi va uning tuzilmaviy tarkibiga bag‘ishlangan. Maqolada, shuningdek, turizmni innovatsion yondashuv asosida strategik boshqarish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.*
Kalit so‘zlar: *turizm, strategiya, muqobil variant, samarali rivojlantirish, turistik resurslar, turizm infratuzilmasi.*
Аннотация. *В статье рассматривается альтернативная стратегия эффективного развития туризма в среднесрочной перспективе и её структурный состав. Также разработано предложения по стратегическому управлению туризмом на основе инновационного подхода.*
Ключевые слова: *туризм, стратегия, альтернатива, эффективное развитие, туристические ресурсы, туристическая инфраструктура.*
Abstract. *The article examines an alternative strategy for effective tourism development in the medium term and its structural composition. Proposals for strategic tourism management based on an innovative approach are also developed.*
Key words: *tourism, strategy, alternative, effective development, tourism resources, tourism infrastructure.*

Milliy turizm bozoridagi joriy konyunkturaviy vaziyat tahlili ayni tarmoqni o‘rta istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishning obyektiv zaruratini asoslaydi. Milliy turizm tarmog‘ini o‘rta istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasi 2026-, 2027- va 2028-yillarga mo‘ljallangan amaliy chora-tadbirlarning asosiy yo‘nalishlaridan tarkib topgan. O‘rta istiqbolning dastlabki yilida ro‘yobga chiqarilishi zarur bo‘lgan amaliy chora-tadbirlar milliy turizm tarmog‘i infratuzilmasini rivojlantirish, ichki turistik destinatsiyalarni o‘zaro bog‘lovchi transport qatnovlari qamrovini kengaytirish, madaniy-ko‘ngilochar muassasalar faoliyatini turistik tashriflar bilan integratsiyalash yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. O‘z o‘rnida, milliy turizm tarmog‘i infratuzilmasini rivojlantirish turizm infratuzilmasi obyektlari milliy reestirini tuzish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish dasturini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Ichki turistik destinatsiyalarni o‘zaro bog‘lovchi transport qatnovlarining optimal sxemasini tasdiqlash ichki turistik destinatsiyalarni o‘zaro bog‘lovchi transport qatnovlari qamrovi kengaytiriladi. Madaniy-ko‘ngilochar muassasalar faoliyatini turistik tashriflar bilan integratsiyalash madaniy-ko‘ngilochar muassasalarda animatorlik dasturlari reja-grafigini ishlab chiqishni talab qiladi.

O‘rta istiqbolning ikkinchi yilida ro‘yobga chiqarilishi zarur bo‘lgan amaliy chora-tadbirlar, asosan, sayohat maqsadlari tasnifiga ko‘ra lokomotiv yo‘nalishlar safini to‘ldirish, an’anaviy turistik attraksiya markazlariga rekreatsion yuklamani optimal darajada saqlash, turmarshrutlarni fitom, litom, gidrom va antronom resurslar kesimida guruhlashni ko‘zda tutadi. Sayohat maqsadlari tasnifiga ko‘ra lokomotiv sanalgan tarixiy-madaniy va ziyorat turizmi

yo‘nalishlari safini to‘ldirish vazifasi eko-, agro-, speleo-, etnografik, gastronomik, ekstremal turizmni rivojlantirish dasturlarini tayyorlashni taqozo qiladi. An’anaviy turistik attraksiya markazlariga rekreatsion yuklamani optimal darajada saqlash Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlariga ortiqcha rekreatsion bosimni bartaraf etish rejasini ishlab chiqish evaziga ro‘yobga chiqadi. Turmarshrutlarni gidrom, fitom, litom va antronom resurslar kesimida guruhlash talabi esa turmarshrutlar milliy klassifikatorini tasdiqlash asosida bajariladi.

O‘rta istiqbolning so‘nggi – uchinchi yiliga mo‘ljallangan amaliy chora-tadbirlar milliy turizm tarmog‘ining targ‘ibot kampaniyasini targeting tamoyillari bilan moslashtirish, milliy turizm tarmog‘ida servis personalini tayyorlashning takomillashgan modelini yaratish, kirish turizmini rag‘batlantirish orqali xizmatlar eksporti geografiyasini kengaytirish vazifalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Qayd etish joizki, milliy turizm tarmog‘ining targ‘ibot kampaniyasini targeting tamoyillari bilan moslashtirish shu yo‘nalishda aniq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqish jarayoni bilan birga kechadi. Milliy turizm tarmog‘ida servis personalini tayyorlashning takomillashgan modelini yaratish maqsadidan kelib chiquvchi masalalar servis personalini tayyorlashning takomillashgan modelini joriy qilish strategiyasini qabul qilish orqali ijro etiladi. Kirish turizmini rag‘batlantirish orqali xizmatlar eksporti geografiyasini kengaytirish turistik xizmatlar eksportini rag‘batlantirishning har bir qit’a uchun alohida “yo‘l xaritalari”ni tayyorlashni nazarda tutadi. Keltirib o‘tilgan o‘rta istiqbolga mo‘ljallangan amaliy chora-tadbirlarning bajarilishiga Turizm qo‘mitasi, ushbu qo‘mita huzuridagi Milliy PR-markazi, Turizmni rivojlantirish instituti, Transport vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, viloyatlar hokimliklari mas’ul bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval

Milliy turizm tarmog‘ini o‘rta istiqbolda rivojlantirishning muqobil strategiyasi[1]

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish shakli	Mas’ul ijrochilar
I. 2026-yilga mo‘ljallangan amaliy chora-tadbirlarning asosiy yo‘nalishlari			
1.1.	Milliy turizm tarmog‘i infratuzilmasini rivojlantirish	Turizm infratuzilmasi obyektlari milliy reestirini tuzish. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish dasturini shakllantirish	O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi, viloyatlar hokimliklari
1.2.	Ichki turistik destinatsiyalarni o‘zaro bog‘lovchi transport qatnovlari qamrovini kengaytirish	Ichki transport qatnovlarining optimal sxemasini tasdiqlash	Transport vazirligi, viloyatlar hokimliklari
1.3.	Madaniy-ko‘ngilochar muassasalar faoliyatini turistik tashriflar bilan integratsiyalash	Animatorlik dasturlari reja-grafigini ishlab chiqish	O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi
II. 2027-yilga mo‘ljallangan amaliy chora-tadbirlarning asosiy yo‘nalishlari			

[1] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

2.1.	Sayohat maqsadlari tasnifiga ko‘ra lokomotiv yo‘nalishlar safini to‘ldirish	Eko-, agro-, speleo-, etnografik, gastronomik, ekstremal turizmni rivojlantirish dasturlarini tayyorlash	O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi
2.2.	An’anaviy turistik attraksiya markazlariga rekreatsion yuklamani optimal darajada saqlash	An’anaviy turistik markazlarga ortiqcha rekreatsion bosimni bartaraf etish rejasini ishlab chiqish	O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi, viloyatlar hokimliklari
2.3.	Turmarshrutlarni gidrom, fitom, litom va antronom resurslar kesimida guruhlash	Turmarshrutlar milliy klassifikatorini tasdiqlash	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi
III. 2028-yilga mo‘ljallangan amaliy chora-tadbirlarning asosiy yo‘nalishlari			
3.1.	Milliy turizm tarmog‘ining targ‘ibot kampaniyasini targeting tamoyillari bilan moslashtirish	Milliy turizm tarmog‘i targ‘ibot kampaniyasining targeting mexanizmini ishlab chiqish	O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi huzuridagi Milliy PR-markazi
3.2.	Milliy turizm tarmog‘ida servis personalini tayyorlashning takomillashgan modelini yaratish	Servis personalini tayyorlashning takomillashgan modelini joriy qilish	Turizmni rivojlantirish instituti
3.3.	Kirish turizmini rag‘batlantirish orqali xizmatlar eksporti geografiyasini kengaytirish	Turistik xizmatlar eksporti geografiyasini kengaytirishning har bir qit’a uchun alohida “Yo‘l xaritalari”ni tayyorlash	O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi, viloyatlar hokimliklari

Yillar kesimida taqsimlangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida ijro etilishi kelgusida milliy turizm tarmog‘ining global xizmatlar bozoridagi raqobat ustunliklari rivojlanishiga zamin yaratadi. Bunda milliy turizm tarmog‘ini o‘rta istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasi ijrosini monitoring qilishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati huzurida maxsus jamoatchilik komissiyasini ta’sis etish maqsadga muvofiqdir.

Alohida e’tirof etish kerakki, sayohat maqsadlari tasnifiga ko‘ra lokomotiv sanalgan tarixiy-madaniy va ziyorat turizmi yo‘nalishlari safini to‘ldirishda etnografik turizm muhim o‘ringa ega. Global miqyosdagi koronavirus inqirozi jahon turizm bozorida jiddiy yo‘qotishlarga sabab bo‘ldi. Millionlab ish o‘rinlari qisqardi, avvaldan band qilib qo‘yilgan aviabiletlar, mehmonxona nomerlari, inklyuziv turlar annulyatsiyaga uchradi. Kichik korxona yoki mikrofirma maqomida xorijiy davlatlardan turistlar oqimini qabul qilish bilan shug‘ullanib kelgan turoperatorlar, mahalliy fuqarolarni chet elga jo‘natish yo‘nalishida ish olib borgan turistik agentliklar, restoranlar bankrotlik yoqasiga kelib qoldi. Shu vaziyatda milliy iqtisodiyotning turizm tarmog‘ini manzilli qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy-iqtisodiy dastaklar vositasida rivojlanish sur’atlarini rag‘batlantirish, xizmatlar bozorining muvozanatli amal qilishini davlat mexanizmi orqali tartibga solish alohida e’tiborga molik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Amonboyev M., Xalilov S. Barqaror turizm rivojlanishi. O‘quv qo‘llanma – T.: Iqtisodiyot, 2021-y., 110 b.
2. Pardayev M. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirishning innovatsion modellari. Monografiya. T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2022-y., 228 b.
3. Shadibekova D. O‘zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirish: muammolar va yechimlar. Monografiya – T.: Iqtisod-moliya, 2021-y., 136 b.
4. Abidova D. O‘zbekistonda ekologik mehmonxonalar faoliyatini yuritish metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya – T.: Ilm-fan va innovatsiya, 2023-y., 100 b.
5. www. unwto.org – Butunjahon turizm tashkiloti rasmiy sayti.
6. www.uzbektourism.uz – O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi rasmiy sayti.